



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIKLARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODELI	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSNARIYLARI.....	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	



QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSNARIYLARI



Mamadiyev Ahmad Ulashovich

Qarshi tumani hokimining qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jaligi, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari
E-mail: ahmadmamadiyev4@gmail.com

Annotatsiya. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar milliy iqtisodiyotni tashkil etish tizimida ishlab chiqarish jarayonini shakllantirish hamda uning moddiy asosini yaratishda alohida o'rin tutadi. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning rivojlanish darajasi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ko'rsatkichi bo'lib, uning raqobatbardoshligi, korxonalarni kapitallashtirish darajasi va investitsion jozibadorligini tavsiflaydi. Mazkur maqolada qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini shakllantirish ssenariylarining ilmiy asoslari tahlil qilinib, ularni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, qurilish xizmatlari, innovatsiya, korxona, iqtisodiyot, iste'mol, tovar, ishlab chiqarish, mehnat, investitsiya, marketing, bozor, texnologiya, iqtisodiy samaradorlik, ssenariy, prognoz, pessimistik ssenariy, optimistik ssenariy, dinamik rivojlanish.

Аннотация. Предприятия, оказывающие строительные услуги, занимают важное место в системе национальной экономики, обеспечивая формирование производственного процесса и создавая его материальную основу. Уровень развития предприятий строительных услуг является одним из ключевых показателей экономического развития страны, характеризует её конкурентоспособность, уровень капитализации предприятий и инвестиционную привлекательность. В статье представлены научные подходы к формированию сценариев экономической эффективности предприятий, оказывающих строительные услуги, а также рассмотрены перспективные направления их развития.

Ключевые слова: сфера услуг, строительные услуги, инновации, предприятие, экономика, потребление, товар, производство, труд, инвестиции, маркетинг, рынок, технологии, экономическая эффективность, сценарий, прогноз, пессимистический сценарий, оптимистический сценарий, динамическое развитие.

Abstract. Construction service enterprises occupy an important place in the national economy by supporting the formation of production processes and providing their material foundation. The level of development of construction service enterprises is a key indicator of a country's economic development, reflecting its competitiveness, the capitalization of enterprises, and investment attractiveness. This article analyzes the scientific foundations of developing scenarios for improving the economic efficiency of construction service enterprises and identifies promising directions for their future development.

Keywords: service sector, construction services, innovation, enterprise, economy, consumption, goods, production, labor, investment, marketing, market, technology, economic efficiency, scenario, forecasting, pessimistic scenario, optimistic scenario, dynamic development.



KIRISH

Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar o'zining ijtimoiy-iqtisodiy missiyasi va maqsadini samarali amalga oshirishi hamda barqaror rivojlanishi uchun yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishlari zarur. Bu esa qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalardagi iqtisodiy samaradorlik, eng avvalo, davlatning innovatsion sohada olib borayotgan siyosati natijadorligiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi hamda mamlakatning milliy innovatsion tizimi ishlash mexanizmlarida aks etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalari mehnat tarkibi o'ziga xos xususiyatlarga egaligi juda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Samaradorlik tushunchasi atama sifatida daromadlar, xarajatlar, rentabellik, ishchi kuchi, kadrlar masalasi, tashkilot xodimlari, ularning yosh va ma'lumot darajalari kabi tushunchalar bilan o'zaro bog'liq. Iqtisodchi olim U. Petti «amaldagi jonli kuchlar» atamasini fanga kiritadi, u: «insonning ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan turli xil xususiyatlari va qobiliyatlari jonli kuchlarda jamlanadi», deb ta'rif beradi. Shu bilan birga, bu kuchlarni u «boshlang'ich va yakuniy mehnat natijasi» sifatida milliy boylikning tarkibi sifatida ta'riflaydi [1]. O'z navbatida, yetuk iqtisodchi olim Adam Smit o'z asarlarida ishchilarning oddiy va murakkab mehnatini hamda shunga mos ravishda kam rivojlangan va yuqori darajada rivojlangan qobiliyatlarini ajratib ko'rsatgan. U, shuningdek, mehnat qobiliyatidagi sifat farqi tabiatan emas, balki olingan bilim, amaliyot va ko'nikmalar bilan yaratiladi hamda mavjud «turli kasblar» tufayli shakllanadi, deb ta'riflaydi [2].

Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning innovatsion tarkibi ham uning kelajakdagi rivojlanishiga va iqtisodiy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning «innovatsion tarkibi» – korxona yoki tashkilotning yoxud, umuman olganda, qaysi tarmoq yoki sohada faoliyat ko'rsatishidan, mulkchilik shaklidan, tashkiliy-huquqiy maqomi va o'lchamlaridan qat'i nazar, istalgan bir xo'jalik yurituvchi subektning yangi ishlanmalarni ishlab chiqish, kashfiyotlar yoki ixtirolarni, foydali modellarni yaratish, ularni joriy faoliyatida samarali qo'llash bo'yicha mavjud barcha intellektual, moliyaviy, kadrlar, axborot, moddiy-texnik va boshqa resurslari hamda imkoniyatlari yig'indisidir [3].

Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarning investitsion tarkibini tadqiq etishda iqtisodchi olim L.A. Tolstolesov investitsiyaviy resurslar to'plami sifatida talqin qilgan va uning tarkibiga investitsiyalarni jalb qilishning zaruriy sharti bo'lgan hududning imkoniyatlarini kiritgan [4]. L.A. Tolstolesov moliyaviy va investitsion tarkibni tadqiq etishda manbalarni alohida o'rgangan, investitsiya tarkibini shakllantirishda esa an'anaviy ravishda hisobga olinadigan moddiy, moliyaviy, intellektual va boshqa resurslar to'plamini, shu bilan birga, kapital egalari va investitsiya obektlarini kiritgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini shakllantirish ssenariylari ilmiy bayon etildi. Mavzu doirasida muammolarni chuqur tahlil etish, ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil qilish, xorijiy va O'zbekistonda, xususan, Qashqadaryo viloyatida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali olingan ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizga ma'lumki, korxona missiyasi uning faoliyatini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli strategik yo'nalishlaridir. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonasi missiyasi deganda uning kuchli tomonlari bo'lgan va uni bozorda muvaffaqiyat qozonishiga imkon beradigan xususiyatlari yig'indisini tushunishimiz mumkin. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonasining missiyasi, o'z navbatida, strategik maqsadlarni belgilash platformasi bo'lib, bu o'z faoliyatini rivojlantirishning umumiy vektorini belgilaydi va ustuvor yo'nalishlarni to'g'ri tanlashga imkon beradi. Korxonalardagi innovatsion jarayonlarning samarasiga iqtisodiy samaradorlik darajasi, ularni tashkil etish va boshqarishdagi mexanizmlarni takomillashtirish orqali erishiladi. Buning uchun korxonalardagi innovatsion faoliyatni amalga oshirishni ta'minlaydigan o'rta hamda uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqish talab etiladi. Albatta, davlatning innovatsion sohada olib borayotgan siyosati fan, ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro uzviy korporativ aloqalariga hamda ular tomonidan olinadigan sinergetik samara darajasiga bog'liq. Yuqoridagilardan kelib chiqib, 2022-yil 21-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“2023–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni** qabul qilindi. Mazkur Farmonda mamlakatning jadal rivojlanishining muhim sharti ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion



texnologiyalarni tezkor joriy etish kerak ekanligi alohida belgilab berildi. Mamlakatda milliy innovatsion tizimni rivojlantirishdagi muammolarning mavjudligi sabab so'nggi yillarda O'zbekistonning nufuzli va obro'li xalqaro tuzilmalar tomonidan tuziladigan Global innovatsion indeks reytingida to'laqonli ishtirok etishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan Farmonda O'zbekiston Respublikasining **2030-yilga** kelib Global innovatsion indeks reytingida jahonning 50 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish vazifasi qo'yilgan. Buning uchun nafaqat mamlakatda hukumat tomonidan innovatsion siyosat yuritilishi, uning institutsional jihatlarini takomillashtirilishi, balki korxonalarda ham bu sohada tizimli ishlarni amalga oshirish zarur. Shuning uchun mazkur maqolada qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy samaradorligini shakllantirishda, bizningcha, innovatsion, boshqaruv va ehtimoliy samaradorlikni oshirish hamda uni rivojlantirishning ssenariylarini ishlab chiqish vazifasi qo'yilgan. Chunki mamlakatda faoliyat yuritayotgan qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi quyidagi muammolarning mavjudligi bilan belgilanadi:

- Mamlakatda faoliyat yuritayotgan turli mulkchilik shaklidagi qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarida modernizatsiya, diversifikatsiya, raqamlashtirish jarayonlarining sustligi;
- Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar faoliyatida amalga oshirilayotgan innovatsion va investitsion loyihalarning kamligi;
- Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish, mahsulot turlarini kengaytirish borasidagi ishlarning zarur darajada tizimli amalga oshirilmayotganligi;
- Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni baholash bo'yicha yagona indikator ko'rsatkichlarining mavjud emasligi;
- Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining iqtisodiy va innovatsion rivojlanish darajasini baholaydigan milliy reyting tizimining hanuzgacha ishlab chiqilmaganligi;
- Jahonda global iqtisodiy tahdidlarning paydo bo'lishi hamda qurilish tarmog'ida texnologik inqilobning shiddat bilan o'sishiga javob beradigan ustuvor sohalarni o'rta va uzoq muddatli rivojlantirishga qaratilgan moslashuvchan innovatsion strategiyalarning mavjud emasligi;
- Yirik qurilish korxonalari iqtisodiy samaradorlikni tizimli rivojlantirishga qaratilgan ssenariylarni ishlab chiqadigan malakali mutaxassislarning yo'qligi;
- Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar va ilmiy muassasalar hamda oliy ta'lim tizimi bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining tizimli ishlashini amalga oshiradigan mexanizmlarning ishlab chiqilmaganligi.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal etish uchun, fikrimizcha, quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish uchun qurilish sanoati korxonalari va ilmiy, ilmiy-tadqiqot hamda eksperimental faoliyat bilan shug'ullanuvchi subektlar o'rtasidagi aloqani rivojlantirish;

Ikkinchidan, boshqaruv jarayonini baholash, bozor tamoyillariga tayangan holda ish yuritish va boshqaruv apparatini har bir qurilish sanoati korxonasi xususiyatlariga muvofiqlashtirish;

Uchinchidan, boshqaruv vazifalarini aniq belgilash orqali innovatsion rivojlanishda vujudga keladigan joriy va strategik muammolarning eng maqbul yechimini izlab topish;

To'rtinchidan, qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining maqsadlariga muvofiq ravishda innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar, operativ va strategik rejalarni ishlab chiqish;

Beshinchidan, qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarining o'zaro hamkorligini keng rivojlantirish asosida qurilish klasterlarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish;

Oltinchidan, xorijiy davlatlardan yangi texnologiyalar, axborot va kommunikatsiya qurilmalari, ishlab chiqarish vositalari hamda zamonaviy boshqaruv uslublarini olib kirilishiga keng imkoniyatlar berish;

Yettinchidan, xalqaro standartlarga javob beradigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida yosh malakali mutaxassislarning qisqa muddatga rivojlangan xorijiy mamlakatlarga malaka oshirishga borishini ta'minlash;

Sakkizinchidan, milliy qurilish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish borasidagi dasturlarni amalga oshirishda davlat tomonidan ko'mak berishning iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy, boshqaruv va huquqiy vositalarini ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Olib borilgan tadqiqotlar, tahlillar natijasiga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik korxonadagi moddiy ishlab chiqarishni amalga oshirishda zarur bo'lgan moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnik va boshqa resurslarni hisobga olgan holda turli xil resurslar yig'indisi sifatida ifodalanadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash borasida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi qurilish sohasida innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirish bilan tavsiflanadi. Bu esa qurilish sanoati korxonalari samaradorligi bevosita fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, ixtirolar hamda loyihalar, ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish bilan belgilanadi. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik turli resurslarga yo'l ochishni ta'minlovchi va iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga u yoki bu turda ko'mak beruvchi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimosti vositalari yig'indisidir. Tadqiqot vazifasidan kelib chiqqan



holda qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonasining iqtisodiy samaradorligini rivojlantirish strategiyasi quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi: korxonaning strategik maqsad va vazifalarini aniqlab olish; korxonaning joriy holatini kompleks tahlil qilish; strategiyani amalga oshirishning tashkiliy va amaliy chora-tadbirlarini ishlab chiqish. Xorijiy kompaniyalar tajribasidan ma'lumki, aksiyadorlik jamiyatlarida iqtisodiy samaradorlikni shakllantirish va ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha strategiyani ishlab chiqishda aniq maqsadlarni qo'yish faoliyat samaradorligini yaxshilash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonasini iqtisodiy samaradorligini shakllantirishning strategik maqsadlari¹.

Korxona iqtisodiy samaradorligini shakllantirish strategiyasining asosiy maqsadi pirovardida yuqori foyda olish hamda mahalliy va jahon bozorida yuqori mavqega ega bo'lishdir. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda innovatsion va investitsion loyihalarni amalga oshirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun mamlakatda siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanishi lozim. Shundagina ishlab chiqarish uchun mahalliy va xorijiy investorlar tomonidan uzoq muddatli investitsiyalarni yo'naltirish kafolati ta'minlanadi. Korxonaning yana bir muhim strategik maqsadlaridan biri huquqiy tamoyillarning mavjudligi va ularga amal qilish holatidir. Chunki huquqiy mexanizmlar orqaligina qurilish sanoati korxonalarining manfaatlarini ta'minlanadi. Keyingi maqsadlari iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy va texnologik hamda bozor talablariga moslashish bilan bog'liq maqsadlar hisoblanadi.

Hozirgi sharoitda qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni shakllantirish va rivojlantirish mahsulotlarning qat'iyani yangi turlarini ko'paytirish hamda ularni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratish holatiga bog'liq. Shuning uchun ilmiy tadqiqot va ishlanmalar natijalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy samaradorlikning rivojlanishini aniqlab beruvchi omillarni o'rganish muhim hisoblanadi. Innovatsion boshqaruv nuqtai nazaridan korxonalardagi iqtisodiy samaradorlikni rivojlantirish strategiyasi – bu muayyan korxonaning iqtisodiy jihatdan o'sish sur'atlari, ko'lami, undagi mutanosibliklar va o'ziga xos jihatlar hamda barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda, shu korxona doirasida o'rta va uzoq yillarga mo'ljallab ishlab chiqilgan va amalga oshiriladigan o'zaro uyg'un strategik maqsad va vazifalar yig'indisidir. Korxonalarda, iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida iqtisodiy samaradorlikni shakllantirishning maqsadli ssenariylarini ishlab chiqish va bu jarayonga strategik yondashuv iqtisodiyotni rivojlantirishdagi yangi yo'llarni izlash borasidagi sa'y-harakatlarni faollashtirishga turtki bo'ladi. Dunyoda sodir bo'lgan global pandemiya hamda yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mavjud dastur va strategiyalarni yangilash hamda yangilarini ishlab chiqish masalalarining dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni shakllantirish, iqtisodiy jarayonlarni boshqarishga strategik yondashuv orqali samaradorlikni oshirish ko'plab kompleks omillar, shu jumladan, ishlab chiqarish resurslarining yangi manbalari, mavjud va kutilayotgan tahdidlar, iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi xavf-xatarlar va to'siqlar ta'siriga bog'liq bo'ladi. Bunday sharoitlarda korxonani yaqin va o'rta muddatlarda rivojlantirish uchun ssenariylar usulidan foydalaniladi. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



korxonalarning iqtisodiy samaradorligi rivojlanishi ssenariylari iqtisodiy o'sishning muqobil modellarning cheklangan soni doirasida rivojlanish omillari va shart-sharoitlarini kombinatsiyalashtirish, zamonaviy usul va uslublarning tahliliy vositalarini qo'llash yordamida eng ko'p ehtimolga ega bo'lgan strategiyalarni amalga oshirish oqibatlarini baholash imkonini beradi. Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda har xil ssenariylarni boshqalaridan prinsipial farqlashni belgilaydigan muqobillar sifatida o'sishning ustunlik qiluvchi manbalari, rivojlanishning cheklangan resurslarini taqsimlashdagi ustuvorliklar, iqtisodiyotda davlat ishtiroki ko'lamlari, talab etiladigan iqtisodiy islohotlarning izchilligi va tarkibini alohida baholash zarur bo'ladi. Odatda, korxonalarning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshiradigan ssenariylarni ishlab chiqishda iqtisodiyot rivojlanishining shakllangan tartibi, trendlari va manbalari, shuningdek, har biri investitsiya oqimlari o'zgarishi va yangi uzoq muddatli o'sish manbalari yaratilishiga jamiyatning sa'y-harakatlari jamlanishini taqozo etadigan bir qancha muqobil ssenariylarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq (1-jadval).

Keltirilgan jadval ma'lumotlariga ko'ra, turli mulkchilik shakllariga ega qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning eng yaqin – 2025-yilgacha, o'rtacha – 2030-yilgacha va eng uzoq – 2035-yilgacha bo'lgan muddatlardagi prognozlarida pessimistik, optimistik va dinamik rivojlanish ssenariylarini ta'kidlashimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida "ASL INSHOAT INVEST QURUVCHI" MCHJ, "BEXRO'Z SHUHRATOVICH" xususiy korxonasi va "BZASH" xususiy korxonasi amaliy misolida qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning ssenariylari ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval
Turli mulkchilik shakllariga ega qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi
korxonalarning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari prognozi²

Ko'rsatkichlar	Meyoriy darajasi	2025	Variant	Yillar bo'yicha prognoz			2025 nisbatan 2035 y.da, % da
				2025	2030	2035	
“ASL INSHOAT INVEST QURUVCHI” MCHJ							
Moliyaviy samaradorlik	min 1,2	4,16	1	4,12	4,64	5,45	132,3
			2	4,42	4,94	5,71	129,2
			3	4,51	5,12	5,84	129,5
Ishlab chiqarish samaradorligi	min 1	1,3	1	1,74	1,83	1,92	110,3
			2	1,12	1,32	1,43	127,7
			3	1,32	1,54	1,62	122,7
Marketing samaradorligi	min 1,3	1,4	1	1,93	1,92	4,0	207,3
			2	1,23	1,32	1,41	114,6
			3	1,42	1,52	1,61	113,4
Boshqaruv samaradorligi	min 1,5	1,4	1	1,61	1,83	1,92	119,3
			2	1,13	1,31	1,43	126,5
			3	1,34	1,52	1,62	120,9
Mehnat samaradorligi	min 1	1,2	1	1,21	1,24	1,31	108,3
			2	1,32	1,53	1,65	125,0
			3	1,53	1,71	1,82	119,0
Innovatsion samaradorlik	min 0,4	0,7	1	0,71	0,91	1,0	140,8
			2	1,12	1,32	1,43	127,7
			3	1,23	1,43	1,52	123,6
“BEXRO‘Z SHUXRATOVICH” XUSUSIY KORXONASI							
Moliyaviy samaradorlik	min 1,2	0,98	1	1,12	1,52	2,07	184,8
			2	1,56	1,94	2,43	155,8
			3	1,81	2,12	2,73	150,8
Ishlab chiqarish samaradorligi	min 1	1,4	1	1,32	1,23	1,32	100,0
			2	1,44	1,52	1,71	118,8
			3	1,82	1,83	1,91	104,9
Marketing samaradorligi	min 1,3	1,4	1	1,21	1,32	1,22	100,8
			2	1,42	1,41	1,47	103,5
			3	1,52	1,73	1,63	107,2

2 Muallifning qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalari ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari



Boshqaruv samaradorligi	min 1,5	1,4	1	1,47	1,24	1,51	102,7
			2	1,82	1,32	1,83	100,5
			3	1,86	1,51	1,91	102,7
Mehnat samaradorligi	min 1	0,7	1	0,91	1,22	1,31	144,0
			2	1,11	1,64	1,73	155,9
			3	1,43	1,82	1,93	135,0
Innovatsion samaradorlik	min 0,4	0,8	1	0,71	0,84	0,91	128,2
			2	0,84	1,32	1,42	169,0
			3	1,21	1,51	1,73	143,0
“BZASH ” XUSUSIY KORXONASI							
Moliyaviy samaradorlik	min 1,2	0,65	1	0,91	1,19	1,32	145,1
			2	1,19	1,32	1,87	157,1
			3	1,32	1,53	2,21	167,4
Ishlab chiqarish samaradorligi	min 1	1,26	1	1,20	1,36	1,47	122,5
			2	1,38	1,52	1,66	120,3
			3	1,5	1,71	1,82	121,3
Marketing samaradorligi	min 1,3	1,3	1	1,03	1,21	1,36	132,0
			2	1,19	1,82	2,32	195,0
			3	1,24	1,42	1,61	129,8
Boshqaruv samaradorligi	min 1,5	1,32	1	1,12	1,35	1,51	134,8
			2	1,32	1,51	1,67	126,5
			3	1,46	1,67	1,78	121,9
Mehnat samaradorligi	min 1	0,66	1	0,92	1,08	1,21	131,5
			2	1,23	1,42	1,61	130,9
			3	1,45	1,62	1,78	122,8
Innovatsion samaradorlik	min 0,4	0,4	1	0,51	0,64	0,91	178,4
			2	0,84	1,22	1,52	181,0
			3	1,01	1,44	1,76	174,3

1-jadval ma'lumotlari turli mulkchilik shaklidagi qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligi 2025–2035-yillar davomida barcha ssenariylar bo'yicha ijobiy o'sish tendensiyasiga ega ekanligini ko'rsatadi. Prognoz natijalariga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati ssenariylar bo'yicha farq qilsa-da, optimistik (uch variantli) ssenariyda eng yuqori natijalarga erishilishi kuzatilmoqda.

«ASL INSHOAT INVEST QURUVCHI» MCHJ bo'yicha moliyaviy samaradorlik 2025-yildagi 4,51 dan 2035-yilda 5,84 gacha o'sishi prognoz qilingan. Ishlab chiqarish samaradorligi 1,62, boshqaruv samaradorligi 1,62, mehnat samaradorligi 1,82 va innovatsion samaradorlik 1,52 gacha oshishi kutilmoqda. Ayniqsa, marketing samaradorligining 4,0 gacha o'sishi korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi va xizmatlar sotuvini kengaytirish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko'rsatadi.

«BEXRO'Z SHUXRATOVICH» xususiy korxonasida prognoz davrida moliyaviy samaradorlik 0,98 dan 2,73 gacha, mehnat samaradorligi 0,70 dan 1,93 gacha hamda innovatsion samaradorlik 0,80 dan 1,73 gacha o'sishi kutilmoqda. Bu esa korxonada investitsiyalardan foydalanish, resurslarni boshqarishni takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy natijalarni sezilarli darajada yaxshilash imkoniyati mavjudligini anglatadi.

«BZASH» xususiy korxonasi bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlari innovatsion va moliyaviy samaradorlikda kuzatilmoqda. Xususan, innovatsion samaradorlik 0,40 dan 1,76 gacha, moliyaviy samaradorlik esa 0,65 dan 2,21 gacha oshishi prognoz qilingan. Shuningdek, marketing samaradorligi 1,61, mehnat samaradorligi 1,78 va boshqaruv samaradorligi 1,78 darajasiga yetishi kutilmoqda. Bu korxonada raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish yuqori iqtisodiy samara berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, prognoz natijalari qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarda moliyaviy barqarorlik, mehnat unumdorligi, marketing, boshqaruv va innovatsion faoliyat ko'rsatkichlari yillar davomida izchil o'sishini ko'rsatmoqda. Eng yuqori iqtisodiy samara optimistik (uch variantli) ssenariyda kuzatilib, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, investitsiyalar hajmini oshirish, raqamli boshqaruv tizimlarini qo'llash va marketing strategiyalarini takomillashtirish hisobiga korxonalarning raqobatbardoshligi hamda iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada oshishi prognoz qilinmoqda.

1. Pessimistik ssenariy. Mazkur ssenariyda qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiy samaradorligi



ko'rsatkichlari, jumladan, moliyaviy, ishlab chiqarish, boshqaruv, mehnat, marketing va innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlil qilingan davrdagi eng past o'sish ko'rsatkichlari asosida ma'lumotlar to'plangan va ushbu ma'lumotlar asosida prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Ushbu ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning eng past natijalar asosida rivojlanish imkoniyatini ko'rsatadi.

2. Optimistik ssenariy. Ushbu ssenariy bo'yicha rivojlanishda ham qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlari, jumladan, moliyaviy, ishlab chiqarish, boshqaruv, mehnat, marketing va innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlarining tahlil qilingan davrdagi yuqori o'sish ko'rsatkichlari asosida ma'lumotlar jamlangan, tahlil qilingan va shu asosda prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu ssenariy prognoz davridagi barqaror rivojlanish imkoniyatini namoyon etadi.

3. Dinamik ssenariy. Taklif etilayotgan qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarining dinamik rivojlanish ssenariysi qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamik, ya'ni o'rtacha rivojlanish tendensiyasini nazarda tutadi. Mazkur ssenariyni amalga oshirish natijasida 2035-yilga kelib qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar iqtisodiy samaradorligining sezilarli darajada oshishiga erishiladi. Korxonalarning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, o'rta va uzoq muddatli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda ikki xil darajadagi pessimistik va optimistik ssenariylar taklif etiladi. Birinchisi besh yilgacha, ikkinchisi besh yildan o'n yilgacha, uchinchisi o'n yildan yigirma yilgacha bo'lgan muddatlarni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy jarayonlarni samarali boshqarish mamlakatimizda innovatsion siyosatni kelgusi davrlarda takomillashtirishda va uning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu ilmiy prognozni amalga oshirishda dissertant tomonidan natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarish tendensiyasini aniqlash yo'li bilan «ASL INSHOAT INVEST QURUVCHI» MCHJ, «BEXRO'Z SHUHRATOVICH» xususiy korxonasi va «BZASH» xususiy korxonasi qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'zgarish dinamikasi hamda ularning 2035-yilgacha bo'lgan bashorat ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga erishish uchun qurilish tarmog'i korxonalarida innovatsion samaradorlik darajalarining o'sib borishini istiqbollashtirish va qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalarni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash hamda raqamlashtirish orqali ularni iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror rivojlantirishga erishish mumkin. Tadqiqot davomida Qashqadaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan uchta qurilish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonaning iqtisodiy samaradorligini shakllantirish ssenariylari turli iqtisodiy sharoitlarda korxona faoliyatining rivojlanish yo'nalishlarini baholash, xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va boshqaruv qarorlarining eng maqbul variantlarini tanlash imkonini beradi. Ilmiy jihatdan mazkur yondashuv resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va investitsiyalarning qaytimini baholashga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa ssenariyli yondashuv qurilish loyihalarining tannarxini kamaytirish, qurilish muddatlarini qisqartirish, xizmatlar sifatini oshirish va korxonaning raqobatbardoshligini kuchaytirishga imkon yaratadi. Shuningdek, u bozordagi o'zgarishlarga tez moslashish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishish uchun samarali boshqaruv mexanizmi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi, degan fikrdamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Петти У. **Экономические и статистические работы.** – М.: Соцэкгиз, 1940. – 211 с.
2. Смит А. **Исследование о природе и причинах богатства народов.** – М.: Издательство социально-экономической литературы, 1962. – 477 с.
3. Шаназарова Г.Б. **Саноат корхоналарининг инновацион салоҳиятини баҳолашнинг айрим назарий масалалари.** URL: http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/4_G_Shonazarova%20t.pdf (мурожаат санаси: ..2026).
4. Толстолесова Л.А. Финансово-инвестиционный потенциал сырьевых регионов и стратегия его реализации // **Вестник Тюменского государственного университета.** – 2011. – № 11. – С. 120–126.
5. Толстолесова Л.А. Финансово-инвестиционный потенциал сырьевых регионов и стратегия его реализации // **Вестник Тюменского государственного университета.** – 2011. – № 11. – С. 120–126. (*Agar 5-manba haqiqatan ham 4-manbaga havola qilayotgan bo'lsa, bibliografiyada «Shu manba» yozilmaydi, to'liq bibliografik tavsif takrorlanadi.*)
6. Гунина И.А. Взаимовлияние общеэкономических проблем и проблем развития экономического потенциала предприятия в современных условиях // **Машиностроитель.** – 2004. – № 10. – С. 19–23.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>